

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

UCHINCHI RENESSANS – MILLAT KELAJAGI POYDEVORI

Musurmankulov Farxod Uralovich

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
Ta'lif sifatini nazorat qilish bo'limi bosh mutaxassisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Uchinchi Renessansning falsafiy, ijtimoiy va iqtisodiy asoslari tahlil qilinadi. Maqola O'zbekistonning zamonaqiy rivojlanish bosqichida Renessans davrining qayta tiklanishi orqali milliy va global miqyosda barqaror kelajakka erishish masalalarini yoritadi. Ilm-fan, ta'lif va texnologiyalarni rivojlantirish orqali milliy o'zlikni saqlash va xalqaro maydonda raqobatbardoshlikni oshirish yo'llari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Uchinchi Renessans, millat kelajagi, ta'lif tizimi, ilm-fan, tarixiy meros, madaniyat, ijtimoiy barqarorlik, iqtisodiy rivojlanish.

KIRISH

Tarixning eng buyuk yutuqlari ko'pincha inson tafakkuri va ijodkorligining eng yuqori nuqtalarida paydo bo'ladi. Renessans davrlari ana shunday paytlardan biridir. Ular ilm-fan, san'at va falsafada inqiloblar orqali jamiyatni o'zgartirish bilan birga, milliy o'zlik va madaniyat rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. Bugungi kunda O'zbekiston Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish yo'lida faol harakat qilmoqda. Ushbu maqolada Uchinchi Renessansning millat kelajagidagi o'rni, uning falsafiy, ijtimoiy va iqtisodiy asoslari tahlil qilinadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahnamoliklarida O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri, ya'ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratish asosiy maqsad etib belgilandi. Bu mustaqil Vatanimiz va bag'rikeng xalqimizning yangicha hayot tarzi va yuksalishining kafolati boladi desam mubolag'a bo'lmaydi. Bugun nafaqat men balki, shu Vatan taqdiriga befarq bo'lmagan har bir inson, shu bilan bir qatorda izlanuvchan yoshlarimiz ana shunday fikr bilan yashamoqda, va ulkan maqsadlar sari ildam qadamlar bilan odimlashmoqda. Albatta bu oson emas. Buning zamirida juda katta mehnat va ilmiy izlanish yotibdi. Avvalo biz yoshlar tarixda o'chmas iz qoldirgan ajdodlarimizni faqatgina nomlarini bilish bilan cheklanmasdan, ularning ilmiy merosini qunt bilan o'rganishimiz, yaxshi anglashimiz talab etiladi.

ASOSIY QISM

Renessansning tarixiy ildizlari va asoslarini, Uchinchi Renessansning mazmun-mohiyatini har birimiz chuqr anglab olishimiz zarur. Yurtboshimiz tomonidan ilgari surilayotgan va davlatimiz rivojlanishining asosiy strategiyasi sifatida qaralayotgan Uchinchi Renessans o'zi nima? Va Uchinchi Renessansning poydevorini kimlar tashkil qiladi?

"Renessans" so'zi – fransuzcha "Renaissance", italyancha – "Rinascimento" – so'zlardan olingan bo'lib, qayta yuzaga kelmoq, yangidan tug'ilmoq, qayta tirilish, uyg'onish – degan ma'nolarni anglatadi. Tarixiy ma'lumotlarga asoslanadigan bo'lsak shu kunga qadar xalqimiz ikki Renessansni boshdan kechirganligini bilishimiz mumkin. Bu ikki Renessansni o'z ichiga olgan ulkan davrda yurtimiz va mehnatsevar xalqimiz ulkan bir sinovli, shu bilan bir qatorda ilk rivojlanish davrlarini bosib o'tgani barchamizga a'yon.

Uchinchi Renessans nafaqat madaniy, balki ijtimoiy va iqtisodiy yuksalishni ham o'z ichiga oladi. Bu jarayon quyidagilarni o'z ichiga oladi:

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

Yo‘nalish	Natijalar
Ta‘lim va ilm-fan	Oliy o‘quv yurtlarining isloh qilinishi, ilmiy markazlar yaratish
Iqtisodiy modernizatsiya	Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, investitsiyalarni jalg qilish
Ijtimoiy birlikni mustahkamlash	Yoshlar siyosatini kuchaytirish, milliy qadriyatlarni tiklash

Aynan mana shu uzoq tarixni o‘z ichiga olgan ilk renessans davrlarida biz hozirgacha faxrlanib kelayotgan ajdodlarimiz va ularning ilm-fanga qo‘shtan ulkan mehnatlari va izlanishlari asosiy o‘rinni egallaydi. Nafaqat Sharqda balki butun dunyo tan olgan allomalarimiz birinchi Renessansni boshlab bergenliklari va ularning yutuqlari ilk uyg‘onish davrini rivojlanishiga asos bo‘lgan desam mubolag‘a bo‘lmaydi.

Birinchi Renessans taxminan X-XII asrlarda ilm-fanda inqilob yaratgan buyuk ajdodlarimiz – Beruniy, Ibn Sino, Farg‘oniy, Xorazmiy, Farobi, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg‘ariy, Mahmud Zamashariy, Buxoriy, Termizi, Motrudi, Abul Muin Nasafiy yashab o‘tgan davrlarga to‘g‘ri keladi. Ularning ilm-fanga doir izlanishlari nafaqat o’sha davrda ulkan yutuq hisoblangan balki, hozirgacha ham dunyo ahllarini lol qoldirib kelayotgani hech kimga sir emas. Biz g‘ururlanib yod oladigan bobolarimiz Beruniy, Ibn Sino, Xorazmiylarning ilmiy ishlari nafaqat O‘zbekiston balki dunyoning eng rivojlangan mamlakatlarida ham asosiy bilim beruvchi dasturi amal bo‘lib xizmat qilmoqda. Tibbiyot ilmining buyuklaridan hisoblangan Ibn Sino yaratgan maktab hozirgi kunga qadar tibbiyot ahllari uchun ulkan bilimlarning debochasidir. Yana bir buyuk ajdodimiz Al-Xorazmiy algebra faniga asos soldi, ilmiy ma’lumot va traktatlarni bayon etishning aniq qoidalarini ishlab chiqdi, u astronomiya, geografiya va iqlim nazariyasini bo‘yicha ko‘plab ilmiy asarlar muallifidir. Allomaning dunyo ilm-fani rivojidagi xizmatlari umum e’tirof etilgan bo‘lib, Sharq olimlari orasida faqat uning nomi va asarlari «algoritm» va «algebra» kabi zamonaviy ilmiy atamalarda abadiylashtirildi.

Buyuk ajdodimiz Ahmad Farg‘oniy tomonidan IX asrda yaratilgan “Astronomiya asoslari” fundamental asarida olamning tuzilishi, Yerning o‘lchovi haqidagi dastlabki ma’lumotlar, sayyoramizning sharsimon ko‘rinishga ega ekani xususidagi dalillar mayjud bo‘lib, mazkur kitob XVII asrga qadar Yevropa universitetlarida astronomiya bo‘yicha asosiy darslik sifatida o‘qitib kelingan hamda buyuk geografik kashfiyotlar davrida Kolumb, Magellan va boshqa sayohatchilarining kashfiyotlari uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qilgan. Ahmad Farg‘oniyning amaliy yutuqlaridan biri uning o‘rta asrlardagi asosiy astronomik asbob – usturlob nazariyasini ishlab chiqqani va shuningdek, Nil daryosida “nilomer” degan, ko‘p asrlar davomida suv sathini o‘lchaydigan asosiy vosita sifatida xizmat qilib kelgan mashhur inshootni yaratgani bo‘ldi.

“Men O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti sifatida Misr Arab Respublikasi poytaxti Qohira shahrida bo‘lganimda, ana shu nilomerni ko‘rib, bu ulug‘ ajdodimizning ilmiy dahosi oldida yana bir bor hayratga tushish baxtiga tuyassar bo‘ldim” degan fiklarni O‘zbekiston respublikasi birinchi prezidenti Islom Karimov “O‘rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidagi roli va ahamiyati” mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish marosimida bildirib o‘tgan edi.

Ikkinchi Renessans esa XIV-XVI asrlarda yashab o‘tgan donishmand bobokalonlarimiz Mirzo Ulug‘bek, G‘iyosiddin Jamshid Koshy, Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi, Lutfiy, Jomiy, Navoiy, Behzod faoliyati va ijodi bilan chambarchas bog‘liq. Tadqiqotchi-olimlarning fikricha, Sharq, xususan, Markaziy Osiyo mintaqasi IX-XII va XIV-XV asrlarda bamisol po‘rtanadek otilib chiqqan ikki qudratli ilmiy- madaniy yuksalishning manbai hisoblanib, jahoning boshqa mintaqalaridagi Renessans jarayonlariga ijobjiy ta’sir ko‘rsatgan Sharq uyg‘onish davri – Sharq

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

Renessansi sifatida dunyo ilmiy jamoatchiligi tomonidan haqli ravishda tan olingan davr hisoblanadi.

Shu bilan bir qatorda, ko‘plab tadqiqotchilar-olimlar qayd etganidek, agar Yevropada Uyg‘onish davrining natijalari sifatida adabiyot va san’at asarlari, arxitektura durdonalari, tibbiyot va insonni anglash borasida yangi kashfiyotlar yuzaga kelgan bo‘lsa, Sharq Uyg‘onish davrining o‘ziga xos xususiyati, avvalo, matematika, astronomiya, fizika, ximiya, geodeziya, farmakologiya, tibbiyot kabi aniq va tabiiy fanlarning, shuningdek, tarix, falsafa va adabiyotning rivojlanishida namoyon bo‘ladi. Mana shu ulkan ikki renessans davrlarida qo‘lga kiritilgan yutuqlarning davomi sifatida yurtboshimiz tomonlaridan ilgari surilayotgan uchinchi Renessans ham ulkan o‘zgarishlar va yuksalish jarayonini boshlab berishi aniq.

Endi Uchinchi Renessansning asosiy poydevori kimlar ekanligi hech kimga sir emas. Bu ma’rifatli, ilmli, mustaqil dunyoqarashga ega yoshlardir. Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev yoshlari bilan uchrashganlarida doim intiluvchan yoshlarga ulkan ishonch bildiradilar va bu mamlakatimiz kelajagiga daxldorlik xissi bilan yashayotgan har bir o‘g‘il-qizning yanada rivojlanishiga katta kuch bag‘ishlaydi. Xuddi shunday baxtli yoshlari qatorida Prezidentimiz bilan uchrashish va ularning yoshlarga bildirgan ishonchlarini his etish baxtiga tuyassar bo‘lgan ko‘pgina yoshlarimiz juda mammundir. Aynan yurtboshimiz bilan bo‘lgan har bir uchrashuv yoshlari hayotida katta o‘zgarishlar debochasi bo‘ldi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Yurtboshimizning yoshlarga qarata “Sizlar Yangi O‘zbekistonning kelajagi - Uchinchi Renessansning poydevorisiz” - degan chorlovlari bejizga aytilmagandi.

Darhaqiqat, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasida tasdiqlanganidek, “Biz o‘z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug‘ maqsadni qo‘ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug‘beklar, Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta’lim va tarbiyani rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g‘oyamizning asosiy ustunlari bo‘lib xizmat qilishi lozim”.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 1-oktyabr – O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagি nutqida buyuk yunon olimi Aristotelning “Vatan taqdirini yoshlari tarbiyasi hal qiladi” - degan so‘zlarini keltirib o‘tadilar. Aynan mana shu jumla o‘z zamirida chinakam iqtidorli yoshlari va ularning ertangi kelajagi davlatimizning asosiy kuchi ekanligini ifodalaydi.

XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, biz oddiy xalqning avlodlari emasmiz. Biz buyuklar avlodimiz va aynan hozirgi yoshlari ajodolarimizga munosib bo‘lmog‘i darkor. Buning uchun esa Vatanni sevish, uni ardoqlash, xalqimiz kelajagi uchun fidokorlik hissi bilan yashash lozim. Shu bilan bir qatorda yuksak bilimli, ma’rifatli, yangi O‘zbekistonimizni yangi marralarga olib chiqadigan darajada iqtidorli va o‘z ustida ilmiy izlanishlar olib borishga tayyor bo‘lgan yoshlarni tayyorlashimiz zarur.

Yurtimizda yoshlarga juda katta ishonch va imkoniyat yaratilgani va aynan yoshlarga Uchinchi Renessansning poydevori sifatida qaralayotgani bizga yanada katta kuch va ma’suliyat yuklashi lozim. Yurtboshimiz boshlab bergen bu yangi davr, yangicha dunyoqarashga ega yoshlari bilan mamlakatimizni yuqori marralarga olib chiqmog‘imiz, kerak bo‘lsa butun dunyonи larzaga soladigan muvaffaqiyatlarni qo‘lga kiritishimizga ishonaman. Yoshlarimiz mustaqil

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

O'zbekistonimizning ertangi kelajagidir. Vatanimizda boshlangan Uchinchi Renessans tom ma'noda yuksalish asri bo'ladi desak aslo mubolag'a bo'lmaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 29 yillik tantanalarida so'zlagan nutqidan. 31.08.2021.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlisga Murojaatnomasida so'zlagan nutqidan.
3. Rahmatov M, Zaripov B. "Yangi O'zbekiston uchinchi Renessans ostonasida" 2021-yil, Toshkent.
4. Allamjonov S. Raqamlı iqtisodiyot: rivojlanish strategiyasi. Toshkent: Ilm Ziyo, 2021. 198-b.
5. Norqulov O. Milliy madaniyat va globalizatsiya. Toshkent: Yangi asr avlod, 2019. 278-b.